

Andijon viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2026-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Andijon viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Andijon viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026- yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 23,0 mingtani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash maqsadida Soliq qo'mitasi, Milliy statistika qo'mitasi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bixillashtirildi

Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2025- yil 1-iyul holatiga, birlik	2026-yil 1-iyul holatiga, birlik
Oltinko'l	1 209	1 202
Andijon	1 933	2 021
Baliqchi	1 382	1 334
Bo'ston	796	890
Buloqboshi	685	648
Jalaquduq	1 030	878
Izboskan	1 119	1 176
Ulug'nor	618	725
Qo'rg'ontepa	1 106	1 098
Asaka	2 035	1 769
Marhamat	1 053	1 053
Shahrixon	1 508	1 559
Paxtaobod	926	893
Xo'jaobod	990	973
Andijon sh.	6 216	6 352
Xonobod sh.	420	425


Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni



II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2026- yilning yanvar-iyunida 2 409 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



2026- yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 934 ta, sanoatda 439 ta, boshqa xizmatlarda 308 ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 202 ta tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


	2025- yil yanvar-iyun oylarida, birlik	2026-yil yanvar-iyun oylarida, birlik
Oltinko'l	127	125
Andijon	189	203
Baliqchi	163	130
Bo'ston	125	183
Buloqboshi	107	94
Jalaquduq	102	74
Izboskan	121	110
Ulug'nor	106	138
Qo'rg'ontepa	185	108
Asaka	147	198
Marhamat	108	105
Shahrixon	118	145
Paxtaobod	72	96
Xo'jaobod	112	90
Andijon sh.	453	568
Xonobod sh.	44	42

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi

2026- yilning yanvar-iyunida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 69,8% ni tashkil qilib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan 0,8 % ga kamaygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2026-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **18 353,1** mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 33,9 % ini tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Izboskan tumani (100,0 %), Bo'ston tumani (100,0%), Shahrixon tumani (99,2 %), Jalaquduq tumani (96,3%), Andijon tumani (90,7 %), Ulug'nor tumani (86,8 %) va Baliqchi tumani (74,1 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2026-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 8 057,0 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 89,2 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 115,2 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Xonobod shahri (99,5 %), Oltinko'l tumani (98,8 %), Marhamat tumani (98,4 %), Izboskan tumani (98,5 %) va Paxtaobod tumani (97,9 %) xissalariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 14 825,4 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 85,2 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 116,7 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Baliqchi tumani (97,3 %), Xonobod shahri (95,7 %), Jalaquduq tumani (94,6 %), Bo'ston tumani (94,2 %) va Ulug'nor tumanlariga (93,5 %) to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 26 513,5 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 94,3 %ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 103,1 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Xonobod shahrida (100,0 %), Andijon tumani (99,2 %), Shahrixon tumani (99,1 %), Izboskan tumani (98,5 %) va Oltinko'l tumani (98,2 %)ga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik
xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo
faoliyati

2026 - yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 15 015,2 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 90,3% ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 118,0 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Qo'rg'ontepa (99,4 %), Ulug'nor (99,1 %), Jalaquduq (98,7%) va Shahrixon (98,4 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 25 438,7 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 74,8 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025 - yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 114,1 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Andijon tumani (91,8 %), Marhamat tumani (77,8 %), Jalaquduq tumani (74,5 %), Oltinko'l tumani (72,6 %) va Baliqchi tumani (71,9 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2026- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 357,3 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 54,6 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bo'ston tumanida – 100,0 %, Izboskan tumanida – 100,0 %, Shahrixon tumanida 100,0 %, Xonobod shahrida – 95,2 %, Andijon tumanida – 90,0 % va Paxtaobod tumanida – 87,4 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2026- yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 439,4 mln AQSH dollarini yoki jami importning 25,7 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Shahrixon tumanida – 100,0 %, Ulug'nor tumanida – 97,1%, Marhamat tumanida – 93,4 %, Jalaquduq tumanida – 92,7 %, Andijon tumanida – 85,8 % va Baliqchi tumanida – 79,4 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2026-yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 94,4 % ni tashkil etdi. 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,3 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 80,2 % ni tashkil etgan bo'lib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,3 % ni tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 97,9,% ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,1,% ni tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-iyunida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,7 % ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,4 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi



V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun a'lo deb baholagan korxonalar ulushi 2026- yilning yanvar-iyunida 9,2 % ni, yaxshi deb baholaganlar 64,5 %, o'rtacha deb baholaganlar 22,0 % ni tashkil etgani holda 4,3 %i yomon deb baholadi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar

2026- yilning yanvar-iyunida o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning shu davriga nisbatan yaxshilangan deb baholaganlar 33,8 % ni tashkil etgan, vaziyat o'zgarmagan deb hisoblovchilar 61,5 % ni tashkil etgan bo'lsa yomonlashgan deb baholaganlar 4,7 % dan iborat bo'ldi.


Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillaring mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar

ulushi 2022- yilning yanvar-iyunida 41,3 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar-iyunida 40,2 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2022- yilning yanvar-iyunida 54,6 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar-iyunida 57,4 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2022- yilning yanvar-iyunida 4,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2026- yilning yanvar-iyuniga kelib, bu ko'rsatkich 2,4 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (keyingi chorak uchun o'zgarishlar istiqboli), % da



Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2026- yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini a'lo deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi Sanoatda – 13,4% ni, Qurilishda– 10,5 % ni, Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 6,9%ni, Savdoda - 6,5 % ni va Xizmatlar soxasida 5,1%ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini yaxshi deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi Xizmatlar sohasida – 75,2 % ni, savdoda – 66,5 % ni, sanoatda – 60,1 % ni, Qurilishda 59,5 %ni va Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 58,6 %ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini o'rtacha deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 27,6 %ni Qurilishda – 24,8 % ni, Savdoda – 22,9 % ni, Sanoatda – 20,2 % ni va Xizmatlar sohasida – 19,7 % ni tashkil etdi.

Bundan tashqari iqtisodiy vaziyatini yomon deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 6,9 % ni, Sanoatda - 6,3 %ni, Qurilishda - 5,2 %ni, Savdoda - 4,1 %ni tashkil qildi, Xizmatlar sohasida esa iqtisodiy vaziyatini yomon deb baholagan korxonalar uchramadi.

Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)





VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Metama'lumot uchun havola:

[Korxonalar va tashkilotlar soni – metama'lumot](#)

[Kichik biznes ko'rsatkichlari – metama'lumot](#)

[Kichik biznesning tarmoqlar bo'yicha ulushi – metama'lumot](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Tadbirkorlik subyektlarini
kuzatuv bo'limi

Ijrochi:
F.Kenjaboyev
74 224-80-00 (6030)

Manzil:

